

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиши методикаси кафедраси профессори Хударган
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова
(15 апреля 2021 года)**

Жиззах-2021

УДК: 581.5 (09)

ББК: 28.58 Г

Э-59

“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари

Жиззах 2021. – 498 бет.

Таҳрир ҳайъати:, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир ҳайъати раиси

б.ф.н. доц. Қодиров F., таҳрир ҳайъати ўринбосари

проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У.

доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э.

б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н.

б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С.

б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

Усанов У.Н.

Тўплам редакторлари: б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD).

Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

Уибу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.

Уларда flora, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиши ҳамда ноёб, ўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиши, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ценозлари ҳайвонларни ўрганиши, паразитлар ва энтомокомлекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта маҳсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.

Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартағи 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.

ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo‘zg‘atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallahsga undaydi. Interfaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, ijodkorligini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishslash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ishiga mas’uliyat bilan yondoshgan o‘qituvchinini ish samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Demak, har bir dars mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos ta’lim texnologiyasi, usul va vositalarni tanlashga to‘g‘ri keladi. O‘qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma - ketligini mo‘ljallash kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi predmetning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quv jarayonini va sharoitini, o‘quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan ta’lim texnologiyalarni tanlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Uzluksiz ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolar, Ilmiy konferensiya materiallari 2019 yil

2. F.Zakirova va boshq Elektron o‘quv-metodik majmular vat ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo‘llanma, T.: OO‘MTV, Samarqand: SamDU nashri..2010. – 57b.

PEDAGOGIK INNOVATSIYALARINI HAYOTGA TATBIQ ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI

E.A. Aberqulov, D. Barliboeva
Jizzax davlat pedagogika instituti

Pedagogik innovatsiyalarida izlab topish, o‘rganish, tahlillar ostida eng ko‘p samara beradiganlarni tanlab olish va ularni amaliyotga qo‘llash tartibini belgilab beradigan bu tizimni yaratish maqsadga muvofikdir. Fikrimizcha, buning uchun, birinchidan, innovatsiya haqida aniq ma’lumotlar jamg‘armasini yaratish bo‘lib, buni shakliy ravishda innovaciyalarni «To’plash jarayoni deb qabul qilamiz».

Innovatsiyalarni to‘plovchi Vazirlik tizimida yangi tashkil qilingan markazlar, jumladan, xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish instituti maktabgacha ta’lim rahbarlari malakasini oshirish bo'yicha doimiy ishlovchi Respublika doimiy kursi qoshidagi monitoring markazida va Respublika ta’lim asosiy bo’gin hisoblanadi. Mazkur ishlarni boshqaruvchi Davlat ta’lim standartlari monitoring maktab pedogollar kengashlari, metod birlashmalari, tuman (shahar) pedagogik xalq ta’lim bo’limlari kengashlari viloyat malaka oshirish institularida o’rganib to‘plangan pedagogik innovatsiyalarni o’z vaqtida «Tanlovchi» larga etkazish yoki ayrimlarini to’g’ridan – to’g’ri «qo’llovchi» larga yo’llashni muvaffaqiyatlashtirib boradi.

Pedagogik innovatsiyalarni tanlashda amaliy ish olib boruvchi «Pedagogik texnologiyalar markazi» quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) ma’lumotlarning yo’nalishini aniqlaydi;
- 2) joriy qilish va qo’llashda ilmiy – metodik jihatdan yordam beradi;
- 3) metodik qo’llanma, dastur va metodik tavsiyalarni nashrga tayyorlaydi va pedagogik matbuotga uzotadi;
- 4) reyting tizimi, o’quvchilarni maktabga tayyorlash, Davlat ta’lim standartlarini joriy qilishdagi ilg’or tajribalar majmuasini yaratadi.
- 5) xorijiy davlatlardagi ta’lim sohasidagi tajribalarni o’rganadi, taqqoslaydi va tavsiyalar tayyorlaydi;
- 6) amalga tatbiqqiluvchilarni o’qitadi, malakasini oshiradi, tajriba almashuvlar tashkil qiladi;
- 7) pedagogika sohasidagi olimlar, ilmiy izlanuvchilar bilan hamkorlik ishlarni olib boradi;
- 8) innovatsiyalarning qo’llanishini dinamik ravishda kuzatib boradi;
- 9) innovatsiyaga oid respublika ilmiy – amaliy kengashlari, konferenciylarini o’tkazadi;
- 10) malaka oshirish institutlari, tuman metodika va maktab pedagogik ishlarni yangi ta’lim axborotlari bilan ta’minlab boradi.

Pedagogik innovatsiyalarni qo’llash bilan unito‘plab, ilmiy jihatdan xulosalar tayyorlovchi bo’g’in o‘rtasidagi «Pedagogik matbuot» asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy pedagogik xodimlariga ularni etkazish ularning taklif va mulohazalarini olish tajriba – sinov xulosalari asosida innovatsiyalarini yanada takominlashtirish ishlari bilan shug’ullanadi. Ta’lim texnologiyasi, pedagogik innovatsiyalarga bunday tizimli yondoshuv davlat ta’lim standartlarini amalga oshirishda o’z samarasini ko’rsatadi.

Ilg’or pedagogik tajribalarni aniqlashda malum mezonlarga asoslanish kerak. Bunda eng muhim mezon o’qituvchi o’z pedagogik faoliyatida qo’llaydigan ta’lim – tarbiyaning yangi shakli, metod va usuldir. Bu mezon ilg’or o’qituvchining oddiy o’quvchilardan ajratadigan eng muhim belgidir. O’qituvchi qo’llaydigan yangilik turlicha: masalan, ta’lim yoki tarbiyaning yangi mazmuni, shakli, metodi, pedagogik mehnatning eng ta’sirchan, takominlashtiruvchi yo’llarini belgalashda iborat bo‘lishi mumkin.

Ilg’or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yuqori natijaga erishishi uchun zamin hozirlashdir. Bunda o’quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobiga olinishi zarur. Qo’yilgan bahoga, o’tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning soni emas, ularning o’quvchilarni inson sifatida shakllanishiga ta’sirining mezoni sifatida qarash lozim.

Bundan tashqari, ilg'or pedagogik tajribaning qulayligi va tejamlilagini hisobga olish lozim. Chunki yuqori natijaga erishishda o'quvchilar va o'quvchilarning kuchini, vaqtini tejash ularni tolktirishdan asrash ham muhimdir.

Ilg'or pedagogik tajribaning o'z – o'zidan emas, balki ommaviy tajriba, shakllangan tajribalar, boshka o'qtuvchilarining ish uslubi bilan vorislik asosida tarkib topishi uning ta'sirchanligini oshiradi va tarqatilishini osonlashtiradi. Bu mezonlar ilg'or pedagogik tajribalarni oddiy tajribalardan ajratish va uni avaylab yoyishga yordam beradi.

Ilg'or tajribalarni faqat viloyat yoki respublika bo'y lab izlab yurish shart emas. Har bir pedagogik jamoa o'z ishlarini ishlari bilan boshqalardan ajralib turadigan pedogologlar bo'ladi. Bu esa pedagogik jamoadagi muhitga ko'p jihatdan bogliqdir. Shu muhitni mo'tadillashtirib kerakli yo'nalishda berib yuborishda maktab rahbarlari, maktab metodika kengashining ham o'ziga xos ulushi bo'lishi tabiiy.

Pedagogik texnologiyani egallashdagi ikinchi muhim bosqich o'qituvchilarimizning pedagogik mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblangan pedagogik texnikani egallashdir.

Pedagogik texnikaning yana bir muhim tarkibiy qismi pedogogning mimik, planatomimik harakatlaridir. Aniq imo – ishora, yuz- ko'z, gavda harakati, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki estehzoli tabassum pedogog ta'sir ko'rsatishda so'z bilan tushuntirishga qaraganda ancha samarali muomila vositasi bo'la oladi.

Pedagogik texnikani egallash o'qituvchining eng yaxshi tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olishini ta'minlaydi. U o'qituvchini kuchini, vaqtini tejab ijodiy ishlashi uchun sharoit yaratadi.

Pedagogik sezuvchanlik va fahm – farosat ham pedagogik mahoratni egallashda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik ahamiyat pedagogik texnikaning eng muhim, nozik qismi hisoblangan so'z bilan ta'sir ko'rsata olishni egallashni taqazo qiladi. A.S.Makarenko «Mening tajribam haqida» ma'rzasida yozgan ediki: «Men» bu yokka kel («Idi suda») deb aytishning 15 – 20 xil oxangini o'rganib organimdan keyin, yuz, gavda, ovoz tuzilishidan 20 xil nozik farqlar bera bilishni organib organimdan keyingina haqiqiy murabbiyga aylandim».

Pedagogik texnologiya pillapoyalari sari intilayotgan o'qtuvchi uchun keyingi bosqich – pedagogik ijod qilishni bilishi kerak.

Pedagogik ijod – fan va sa'atning yaxlitligidan iborat faoliyat. Pedagogik ijod faoliyat sifatida yangilik yaratish bo'lib, o'zining takrorlanmas ijtimoiy mohiyati bilan ajralib turadi. Pedagogik ijodning o'ziga xosligi, takrorlanmasligi shundaki, uning mahsuli sifatida inson shaxsi shakllanadi.

Pedagogika fanida amaliy faoliyatni ilmiy ijoddan farqqilmok kerak. Ilmiy ijod jarayonida ta'lim – tarbiyaning avval noma'lum bo'lган yangi konuniyatlarni ochilib, yangicha nazorat va uslubiy echimlar ishlanadiki, uning oqibatida hozirgi zamon maktabining murakkab muammolari echiladi, kelajakda uning rivojlanish istiqbollari belgilanishi mumkin. O'qituvchi faoliyatida ijod turli shakllarda va mazmunda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ijodning bosqichlari to'g'risidagi masala qo'yilsa, xato bo'lmaydi.

Pedagogik ijod jarayonida ta'lim – tarbiyaga butunlay yangicha yondoshosh ishlab chiqish, yangicha shakl, uslubiy vositalar yaratilishi: mavjud bo'lган usul, vositalarni yangicha sharoitda qo'llanishini asoslanishi yoki ularni yangicha vazifalar talabi asosida takomillashtirish nazariy va uslubiy xulosalarni pedagogik jarayonga qo'llash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Amaliy faoliyat bilan shug'ullanayotgan muallimlar uchun pedagogik ijodning eng oliv bosqichi ta'lif tarbiyani mutlaqo yangi, yuqori natija beruvchi shakllarni yaratishdir. Biz yangi texnologiya haqida fikr yuritar ekanmiz «pedagogik ijod» bilan «pedagogik mahorat» tushunchalarni ham o'zaro munosabatini ham tahlil kishimiz lozim. Bular bir biriga yakin bo'lib, ammo ular mutlako teng emas. Mahoratlari, o'z ishining ustasi deganda o'z kasbini mukammal o'rgangan o'qituvchi tushiniladi. Mahorat katta tajriba bilan chukur nazariy bilim zaminida shakllanadi. Ijodiy ishlash deganda har qanday yosh, hali pedagogik mahorat cho'qqisini egallamagan o'qituvchi tushinish mumkin. Ijodiy ta'lif – tarbiya sifatini yaxshilashga intiluvchi o'qituvchilarining izlanishlaridan ham iborat bo'lishi mumkin.

Haqiqiy pedagogik ijodning yangilik ketidan quvish unga ko'r – ko'rona ergashish uni bayroqqilib olish bilan almashtirish mumkin emas. Bu yangilik yaratish emas, balki yangilik soyasida yashirinishdir.

Masalan bir vaqtlar Lipisk, Rostov «tajribalari» ketidan quvish hollari bo'lgan edi. Yoki o'zlashtirishni ko'rsatish uchun «2» siz o'qish davrlari. Yoki maktablarimizda optimlashtirishni qo'llash kabi «yangilik» ka intilish, uni bayroqqilib olib ta'lif – tarbiyani ma'lum andozaga solishlarini biz o'z boshimizdan kechirdik. Bunday yangilikdan uning ayrim belgilari, tomonlari ajratib olinib, uning mohiyatini, g'oyasini tushinilmaydi. Oqibatda bu yangilik kutilgan natijani bermaydi.

Pedagogik ijodning eng muxim sharti shu sohani bilish, tushini, uni sevish, unga jonkuyarlik tashabbus bilan yondoshidir. Shu bilan birga o'qituvchining yuksak umumiyligi madaniyatidir. Yuksak madaniyat keng tushuncha bo'lib, eng avvalo o'qituvchining chuqur bilim saviyasi, har tomonlama qiziqishlarini, yuksak aqliy rivojlanganligi, ijtimoiy faolligini, kamtarin, mexnat sevarligini, pedagogik odobini, jamoa va o'quvchilar bilan muomilasi, kelajakda ishonchini, xushchaqchaqligi kabi xislatlarining majmuasini o'z ichiga oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev uyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston” 2017.
2. I.A.Karimov «Buyuk kelajak sari». -Toshkent. «O'zbekiston», 1998.
3. I.A.Karimov «Ma'naviy yuksalish sari». -Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
4. Ishmuhammedov R.J. “Inovatsion texnologiyalar yordamida ta'lif samadorligini oshirish yo'llari” -Toshkent. 2004.
5. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. -Samarqand 2004.

BIOLOGIK TA'LIMNI INTENTSIVLASHTIRISH VA AKTIV MUSTAQIL IJODIY TAFAKKURNI TARKIB TOPTIRISH

**Soliyeva G.D., Qo'ziyeva Yu.A., Xalilov J.E.
Jizzax davlat pedagogika instituti**

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir.

16	N.S. Abdullayeva, D.A. Agzamova, A.B. Isomova. OLTIHOVUZ QISHLOG'I ATROFI FLORASINI O'RGANISH.....	46
17	Н.С. Абдуллаева, Н.Ў. Алиева, А.Ҳ. Мадаминова. ЖИЗЗАХ ШАХАР МАНЗАРАЛИ ЎСИМЛИКЛАРНИ ЎРГАНИШ.....	50
18	Н.Т.Хамраева, Г.С. Бердиёрова. ТИКОНЛИ КОВУЛ ЎСИМЛИГИ МЕВАСИДАН КОНСЕРВА МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЙЁРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ.....	55
19	M.A. Рахимова, T.A. Жўлбоев. FAN-TEXNIKA RIVOJLANGAN HOZIRGI ZAMONNING MUHIM EKOLOGIK VAZIFALARI.....	57
20	Н.С. Абдуллаева, З.И. Абдужалилова. ЗОМИН МИЛЛИЙ ТАБИАТ БОГИ ЎСИМЛИКЛАР ДУНЁСИНИ ИНВЕНТАРИЗАЦИЯСИ.....	59
21	G.D. Soliyeva, S.A. Jalolova. DORIVOR O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASH, ULARNING URUG'CHILIGINI YO'LGA QO'YISHNI RIVOJLANTIRISH.....	61
22	Ишанқулова Д.У, Қўзиева С.Ў. ШАҲАРЛАРНИ КЎКАЛАМЗОРЛАШТИРИШДА МАНЗАРАЛИ ЎСИМЛИКЛАРНИНГ ЎРНИ.....	64
23	J.A. Jumanov, F.B. Abduxoliquov, N.A. Ergasheva SIRDARYO VILOYATI SHO'RLANGAN TUPROQLARIDA O'SIMLIKLARNI BARGI ORQALI OZIQLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
24	Matmuratova G.B, Norqulova F.A. FITONEMATODALARNING O'SIMLIKLARDA PARAZITLIK QILISHI VA ZARARI.....	69
25	Х. Умурзакова, Ё. Қаюмова. ФАРГОНА ВОДИЙСИ ШАРОИТИДА АНОР БУТАСИНИНГ МУҲИМ ЗАРАРКУНАНДАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ҲОСБИОЭКОЛОГИК ҲУСУСИЯТЛАРИ.....	71

2-SHO'BA. TA'LIM - TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

26	Jabbarova Z. O., Mustafoyeva N. A. TALIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	74
27	Aberqulov E.A., Barliboeva D. PEDAGOGIK INNOVATSIYALARINI HAYOTGA TATBIQ ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI.....	76
28	Soliyeva G.D., Qo'ziyeva Yu.A., Xalilov J.E. BIOLOGIK TA'LIMNI INTENTSIVLASHTIRISH VA AKTIV MUSTAQIL IJODIY TAFAKKURNI TARKIB TOPTIRISH.....	79
29	Ikromova Yu.E., Bahronova A.F. AN'ANAVIY DARS SHAKLLARINI PEDAGOGIK VA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALAROI BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	83
30	Мирзоева М.А., Хайитбоева М.Б. ЦИФРОВИЗАЦИЯ – РАЗВИТИЯ.....	85
31	Esonqulova D.S., Samadova S.J. PEDAGOGIK INNOVATSIYALARINI HAYOTGA TATBIQ ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI.....	87
32	Ergasheva N.E., Omonjo'lov O.A. TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	91
33	Xolmo'minova B, Turonova G. BOSHLANG'ICH SINF "ATROFIMIZDAGI	